


## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH



*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lim kafedrasи o'qituvchisi  
Yuldasheva Mehriniso Ochilidiyevna*

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim muassasa tarbiyalanuvchilari borliq va unga tutash hodisalar va tabiatni sevishga qaratilgan holatlarni ko\_rish mumkin. Bola tarbiyasida tabiatning o\_z o\_rni borligi va undan oqilona foydalanishni tushuntirish zarurligi alohida to\_xtalib o\_tilgan.

**Kalit so'zlar:** tabiat, inson, rol, Markaziy Osiyo, mutafakkir, muhofaza, fikr, tarix, tanishtirish, metod, fan.

### INTRODUCING NATURE TO PRESCHOOL CHILDREN

#### ABSTRACT

Preschoolers can see the events that take place and the events that take place in it, and the love of nature. Special emphasis was placed on the role of nature in the upbringing of children and the need to explain its rational use.

**Keywords:** nature, man, role, Central Asia, thinker, conservation, thought, history, introduction, method, science.

#### KIRISH

Ilm - fan, ma`rifat - madaniyat asrlar davomila insoniyat olamida so'nmas mash`al bo'lib, yoritib kelgan. Mamlakatimiz mustaqilligi sharofati bilan bugungi kunda bu mash`al tobora porlab, o'zgacha ahamiyat kasb egmoqda. Bizga ma'lum bo'limgan tarix zarvaraqlari qatida pinhona yotgan qadpiyatlapimiz, noyob qo'lyozma asarlarimiz, qadimiy yodgorliklarimiz istiklol sharofati bilan tadqiqotchi olimlarimiz tomonidan teran o'rganilmoqda.

Tarix - insonning barkamollik, taraqqiyot yo'li. Moziyii bilmaslik o'zini anglamaslikdir. O'zini anglagan xalqgina buyuk kishilarning nomlarini e`zozlab ruhi poklarini doimo yod etadi. Agar biz o'tmish tariximizga, nazar tashlasak, yashab ijod etgan pedagoglarimiz o'zlari ijod etgan davrlardayoq bolaning har tomonlama usishida, ma`naviy ozuqa beradigan tabiatning noz-ne'matlari uning mo''jizalaridir deb ta'kidlab o'tganlar. Tarix zarvaraqlarida o'zlarining o'chmas, unutilmas nomlarini qoldirgan buyuk pedagoglar bola tarbiyasida tabiatning ahamiyati. uning bola ruhiyatiga qanday ta`sir qilishi haqida ilmiy fikrlari i aytib utganlar. Ushbu mavzuni o'rganishda biz G'arb pedagoglaridan: Y.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.G.Pestolotsiy

kabi olimlarning bola tarbiyasida tabiatning tutgan o'rni haqidagi ilmiy asarlari bilan tanishamiz. Rus pedagoglaridan K.D.Ushinskiyning, "Inson tarbiya predmeta sifatida" asari bilan tanishamiz. Ushinskiy "Meni pedagogikada var var hisoblasangiz ham, lekin men o'z hayot tajribamda shunday xulosaga keldim.

Go'zal tabiat yosh qalbga shunday katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadiki, hatto pedagogikaning ta'siri ham u bilan raqrbatlashishga ojizdir", -degan edi. Bizga ma'lumki, bola dunyoga kelar ekan ilk yoshligidan boshlab tabiat bilan muloqotda bo'ladi. Bu haqda buyuk pedagog olimlarimiz o'zlari yashab o'tgan davrda, bolaning har tomonlama o'sishida ma'naviy ozuqa beradigan tabiatning nozne'matidir deb, ta'kidlab o'tganlar. Biz hozirda o'tmishdagi pedagoglarimizning dono fikrlari va ilmiy asarlariga suyanganmiz o'zimizning pedagogik faoliyatimizda foydalanamiz.

O'rta asrlarda tabiat haqidagi tushunchalar Evropa mamlakatlarida deyarli rivojlanmadı- G'arbiy. Evropada fan tushkunlikka tushgan bir davrda O'rta Osiyo olimlari uni rivojlantirdilar. O'rta aerlarda O'rta Osiyo olimlari hali ekologiya fani umuman yo'q bulgan davrda tabiat, undagi muvozanat, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlarni aytganlar. Buyuk alloma, entsiklopedik olim bobokalonimiz Muhammad al-Xorazmiy (783-847) bir risolasida shunday yozadi: "Bilginki, dunyoningko'zлari yoshlansa. uning boshiga g'am kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig tutmang". Demak tabiat va uning maxsuli inson uchun ekan, undan oqilona va odilona foydalanish kerak. Erga, suvga, hayvonlarga bo'lgan munosabatlarimizni yaxshilashimiz bilangina ona tabiatimizni asrab qolishimiz mumkin. Hayvonlar na'rasiga to'la urmonlarni, parrandayu darrandalar makoni to'qayzorlarni zilo ko'llarni va o'tloqlarni qayta tiklashning imkonibor. Bu ishlarga faqat insongina krdir. Zero, shoir aytganidek: "Mulki jahon ichra xoqon ham uning uzi ya'ni inson, demak tabiatni ham u saqlab kola oladi". O'rta asrlarda Urta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muxammad Muso al - Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar tabiat fanining rivojlanishiga ulkan hissa qushganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simliklar va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar. Mana shunday zabardast buyuk allomalarimizdan Muhammad Muso al-Xorazmiy, o'zining "Kitob surat al - arz" asarini Abu Nasr Farobi (870-810) "al - hajmi va al - mikdor", "Kitob almabodi al - insonia" aerlarini Abu Rayhon Beruniy "Saydana", "Minerologiya" aerlarini Abu Ali ibn Sino, u "Kitob al - shifo", "Tadbir ul - manzil" kabi asarlari!sh yozganlar. Hadisi sharifimizdagi tabiat, tabiatni avaylab asrash, uni ko'paytirish, parvarish qilishga oid bandlari bilan ham tanishib. uni chuqur tahlil qilinadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

B.Ziyomuhamedovning ta‘riflashicha, ekologiya terminining mumtoz ma‘nosi ayrim hayvonot turlari va ular populyatsiyalarining hamda o’simliklar turlarining tashqi atrof-muhit bilan munosabatlari, ularning tadrijiy rivojlanishiga ko’rsatadigan ta‘sirini o’rganadigan ilm sohasi demakdir. Muhitning organizmni harakatlantiruvchi alohida tarkibiy qismlari (havo, yorug\_lik, issiqlik, suv, oziq-ovqat) ekologik omillar deb atala. diA.S.To\_xtayev fikricha, "ekologik muhit deganda tirik organizmni o’rab turgan fizik qurshov e‘tiborga olinadi. Aniqroq so’z borganda muhit tevarak-atrofdagi o’zaro bog’lanishlardagi shart-sharoitlar va ta‘sirlar majmuidir (tabiiy va sun‘iy muhit)".

### NATIJALAR

Bunday munosabatlar tabiat zahiralaridan oqilona foydalanish maqsad va usullarini baholash zarurati paydo bo’lganda yuzaga keladi:

- insoniyatning tabiatga nisbatan munosabatlarining xususiyati (maqsadsiz, shaxsiy qiziqish, atrof-muhitga nisbatan loqaydlik, ma‘lum bir maqsadga yo’naltirilgan, iste‘molchilik, ehtiyyotkorona, faol ijodiy)ni;
- tabiat zahiralaridan foydalanish maqsad va usullarini baholash zarurati paydo bo’lgandagina yuzaga keladi.

Bunday baholashga zarurat tabiiy omilning inson va jamiyat uchun ham muhim insoniy qadriyat ekanligidan hosil bo\_ladi. Jamiyat a‘zolarining farovonligi va huzurhalovoti atrof-muhit holatiga bevosita bog’liq.

Ma‘lumki, tabiat insoniyat uchun bebaho qadriyatdir. Tabiat, tug\_ilish, yashash, o’sish, faoliyat maydoni hisoblanadi. Inson tabiat bilan birga yashaydi, usadi, rivojlanadi. Insoniyat tabiatga ta‘sir etibgina qolmasdan, unga bevosita bog’liq hamdir. Tabiatga bog’liq omillar texnika, iqtisodiy ekologik munosabatlarini ham belgilaydi. Ana shu holat kishilarning tabiat, atrof-muhitga bo’lgan munosabatlarni muvofiqlashtirish zarurligini taqozo etadi. Bolalarni ilk yoshidan hayvonot olami bilan tanishtirish orqali ularga mehr uyg’otish, jonsiz va jonli tabiatni muhofaza qilish ekologik tarbiyaning dastlabki elementlaridan biri sifatida tadqiq etilishi lozim bo\_lgan muammodir. Ayniqsa, bu yo\_nalish maxsus o’rganilmaganligi, hozirgi kunda esa davlat va jamiyatning barkamol shaxsga bo’lgan ehtiyojining kuchayganligi dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Maktabgacha yoshdagagi bolarni tabiat bilan tanishtirish orqali estetik, aqliy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, jismoniy rivojlantirish barcha zamonlarda ham o’ta dolzarb muammolardan hisoblangan.

Tabiat bilan tanishish insonni ma‘naviy kamolotga yetkazuvchi jarayon bo’lib, uni barcha salbiy xatolardan saqlaydi. Natijada uning xulqiy go’zalligi ortadi. Shu sababdan ham tabiat bilan tanishtirish orqali ta‘lim-tarbiya jarayoni uzoq tarixga ega.

Shu nuqtai nazardan O'rta Osiyo xalqlari tabiatni muhofaza qilish sohasida boy an'anaga ega.

Tabiatni asrab avaylash ardoqlash insonning burchi ekanligi haqidagi ta'limotlar Turoni Turkistondan yetishib chiqqan buyuk olimlarning ta'limotlarida o'z ifodasini topgan. Allomalar o'z davrida tabiatdan foydalanish, ular bilan bog'liq bo'lган voqeа, hodisalar haqida boy ma'lumotlarni yozib qoldirganlar. Tabiatga mehr, yuksak axloq – odobini tarbiyalash lozimligini o'z asarida bayon etganlar.

### MUHOKAMA

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ahamiyati. Tabiatga muhabbat - juda keng qamrovli va murakkab his-tuyg\_udir. U yuksak ruhiy va akdiy qatlamlarni o\_z ichiga oladigan murakkab bir butunlikni tashkil etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muxitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga doir tadqiqot ishlarini olib borgan M. Umarovaning fikricha, bu hissiyotni tarbiyalashni bolalikning erta yoshidan boshlash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Har bir bolada o'zi yashab turgan mahalliy o\_lka va O'zbekiston tabiatiga muhabbat bilan qarash, unga ko'ngil qo'yish ishtiyoqi o'sib boradi. Bolalikda tug'ilgan bu tuyg'u maktab yillarida rivojlanib, boyib boradi.

Ana shuning uchun ham P.Yusupova o'zining «Formirovaniye nachal materialisticheskogo miroponimaniya u starshix doshkolnikov v protsesse oznakomleniya ix s rasteniyami v usloviyakh Uzbekistana» deb nomlangan tadqiqot ishida metodist olim A.V.Zaporojetsning quyidagi fikrini o'rinli keltiradi: "...maktabgacha yosh didaktikasini shunday yo'lga qo'yish kerakki, bolalar tevarak-atrofdagi buyumlarning tashqi jihatlari bilangina emas, balki ular orasidagi eng oddiy boglanishlar, kuzatilayotgan hodisalarning eng yaqin sabablari, o'zgarish va rivojlanishlaridagi ayrim xususiyatlar bilan ham tanishsinlar, bunday material saviyaga mos bo\_libgina qolmay, maktabgacha yoshdagi bola uchun qiziqarli hamdir". Bola ana shu bog'lanishlarni anglash orqali tabiat qonunlarini bilib boradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, **maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish** - bu ularda tabiatga to\_gri munosabatni tarbiyalash va hissiy tajribaga asoslangan, atrof-muhit haqidagi real bilimlarni anglashning ta'limiy vositasi.

Kuzatishlarning tasdiqlashicha, bolalarning atrof-muhitdagи faoliyati asosan o\_z-o\_zidan, kutilmagan tarzda kechadi va buni ulardagи tabiatga bo\_lgan bunday munosabatning asosiy sababi deb hisoblash to\_gri bo\_ladi Oila, mahalla, bir so\_z bilan aytganda, tevarakdagilarning, ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarining pedagogik ta'siri bilan bunday nojoiz faoliyat tuzatib boriladi. Mana shuning uchun ham maktabgacha yoshdayoq bolalarning tabiat haqida ishonarli ma'lumotlarni egallashlari juda muhim.

## XULOSA

Umuman olganda, tarbiyachi maktabgacha yoshdagи bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida quyidagi vazifalarни hal etishi zarur:

- 1) jonli va jonli tabiat haqida aniq bilimlar berishi, ularning o\_zaro aloqadorligini ochib berishi;
- 2) inson organizmi va uning salomatligi haqida ma'lumot berishi;
- 3) maktabgacha yoshdagи bolalarni tabiatdagi o\_zgarishlarni kuzatishga doir xulq-atvor ko\_nikma va malakalari bilan qurollantirish;
- 4) tabiatdan oqilona foydalanish va uning boyliklarini ko\_paytirishga yo\_naltirilgan inson mehnat faoliyati bilan tanishtirish;
- 5) Ona-tabiatga muhabbat, uning asrab-avaylashga doyr ishtiyoqni tarbiyalash.